



## KRIMINOGEN VAZIYATI MURAKKAB MAHALLADA HUQUQBUZARLIKLARNING BARVAQT OLDINI OLISH TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHİYATI

Kaxarov Zafarjon Sunatillayevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Magistraturasi "Tashkiliy-  
taktik boshqaruv" mutaxassisligi bo'yicha magistri  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20509757>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil  
Ma'qullandi: 28-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

### KEYWORDS

*kriminogen vaziyat, mahalla, huquqbuzarliklar profilaktikasi, barvaqt oldini olish, profilaktika inspektori, xavfsiz muhit, huquqbuzarlik sabablari va shart-sharoitlari, profilaktik chora-tadbirlar, ijtimoiy profilaktika, jamoatchilik hamkorligi, yoshlar bilan ishlash, jinoyatchilikning oldini olish.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tushunchasi, uning nazariy-huquqiy asoslari hamda mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'luvchi omillarni erta aniqlash, ularni bartaraf etish mexanizmlari, profilaktika subektlarining o'zaro hamkorligi va mahallalarda xavfsiz muhitni ta'minlash masalalari yoritilgan. Maqolada kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda profilaktik faoliyatning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Hozirgi davrda jamiyat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda huquqbuzarliklarning oldini olish har qanday demokratik davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni samarali amalga oshirishda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining muhim yo'nalishi, balki jamiyat barqarorligini ta'minlashning zarur sharti ham hisoblanadi.

Yurtimizda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish masalasi jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida baholanadi. Zero, huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin uning salbiy oqibatlarini bartaraf etishdan ko'ra, uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish ancha samarali natija beradi. Shu nuqtayi nazardan, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tushunchasi profilaktika faoliyatining asosiy nazariy kategoriyalaridan biri hisoblanadi.

R.O.Nigmatov va A.A.Shodiyevlarning ta'kidlashicha, jinoyatchilikning oldini olish – bu jamiyatda jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi sabablar<sup>1</sup> va unga imkoniyat yaratadigan shart-sharoitlarga ta'sir ko'rsatish orqali ularni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy faoliyatdir<sup>2</sup>. Nazarimizda, taklif juda o'rinli hisoblanib, profilaktika faqat huquqbuzarlikka qarshi reaksiya emas, balki uning kelib chiqish manbalariga ta'sir ko'rsatish orqali ijtimoiy xavfni<sup>3</sup> kamaytirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tushunchasini to'g'ri anglash uchun avvalo «kriminogen vaziyat» kategoriyasining mazmunini yoritish talab etiladi. Ilmiy adabiyotlarda kriminogen vaziyat muayyan hududda jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning sodir etilishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik va tashkiliy omillar yig'indisi sifatida talqin qilinadi. Bu omillarning o'zaro ta'siri muayyan hududning xavfsizlik darajasini belgilab beradi.

A.I.Dolgovaning fikricha, kriminogen vaziyatni baholashda nafaqat sodir etilgan jinoyatlar soni, balki aholi bandligi, oilaviy muhit, migratsiya jarayonlari, ijtimoiy nazorat holati va aholining huquqiy madaniyati darajasi kabi ko'rsatkichlar ham inobatga olinishi lozim<sup>4</sup>. Mazkur yondashuv kriminogen vaziyatni kompleks ijtimoiy hodisa sifatida baholash imkonini beradi<sup>5</sup>.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kriminogen vaziyati murakkab mahalla deganda huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan, profilaktik ta'sir choralari kuchaytirishni talab etadigan hamda ijtimoiy xavf omillari nisbatan ko'proq to'plangan hudud tushuniladi. Bunday mahallalarda ishsizlik, nazoratsiz qolgan yoshlar, nosog'lom oilaviy muhit, ijtimoiy muammolar va boshqa salbiy omillarning mavjudligi huquqbuzarliklarning ko'payishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Zamonaviy kriminologik tadqiqotlarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning asosiy maqsadi huquqqa xilof xulq-atvorning shakllanish jarayoniga erta bosqichlarda ta'sir ko'rsatishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Bu esa profilaktika faoliyatini faqat huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar bilan emas, balki xavf guruhiga mansub shaxslar bilan ham tashkil etishni taqozo etadi.

Yu.M.Antonyanning qayd etishicha, shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvori birdaniga shakllanmaydi, balki ma'lum ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida bosqichma-bosqich

<sup>1</sup> Нигматов Р. О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг ўзига хос жиҳатлари: америка қўшма штатлари мисолида илмий-назарий таҳлил //Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Т. 3. – №. 9. – С. 116-121.

<sup>2</sup> Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар мажбуриятларини оширишнинг илмий-назарий таҳлили //Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – Т. 4. – №. 9. – С. 73-77.

<sup>3</sup> Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар ҳуқуқларини такомиллаштиришнинг илмий-назарий таҳлили //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2025. – Т. 3. – №. 9. – С. 27-31.

<sup>4</sup> Долгова А.И. Криминология. – Москва: 2010. – С. 296

<sup>5</sup> Хайитович Y.D. Transport huquqi mustaqil huquq tarmoqi sifatida: nazariy asoslar, qiyosiy tahlil va o'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish masalalari //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2026. – Т. 6. – №. 2. – С. 67-71.

rivojlanadi. Shu sababli profilaktika choralari aynan mazkur jarayonning dastlabki bosqichlarida amalga oshirilganda yuqori samara beradi<sup>6</sup>.

Kriminogen vaziyatning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lib, ularning har biri muayyan darajada huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois kriminologiya fanida mazkur omillarni o'rganish huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning muhim nazariy asoslaridan biri sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda jinoyatchilikning determinantlari sifatida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik va tashkiliy omillar ajratib ko'rsatiladi.

Jinoyatchilik sabablari va shart-sharoitlarini tadqiq etgan olim N.F.Kuznetsovaning ta'kidlashicha, jinoyatchilik jamiyatda kechayotgan ijtimoiy jarayonlardan ajralgan holda vujudga kelmaydi, balki ularning muayyan salbiy ko'rinishlari ta'sirida shakllanadi<sup>7</sup>. Ushbu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, mahalladagi har qanday ijtimoiy muammo ma'lum sharoitlarda huquqbuzarliklarning yuzaga kelish xavfini oshirishi mumkin<sup>8</sup>.

Ayniqsa, aholi bandligi bilan bog'liq masalalar kriminogen vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan shaxslarda huquqqa xilof xatti-harakatlarga moyillik nisbatan yuqori bo'ladi. Bu holat, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kuzatilganda jamoat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mahallalarda aholi bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Kriminogen vaziyatga ta'sir etuvchi omillar orasida oila institutining o'rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Oila inson shaxsining shakllanishida asosiy ijtimoiy muhit bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun nosog'lom oilaviy muhit, ota-ona nazoratining yetarli emasligi, doimiy nizolar va ajrimlar voyaga yetmaganlar xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ko'plab kriminologik tadqiqotlarda huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ma'lum qismi muammoli oilalarda tarbiyalanganligi qayd etilgan.

Bu borada Yu.D. Bluvshiteyn jinoyatchilikning shakllanishida ijtimoiy muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, shaxsning xulq-atvori uni o'rab turgan muhit ta'sirida shakllanishini qayd etadi<sup>9</sup>. Mazkur fikr mahalla muhitining huquqbuzarliklarning oldini olishdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kriminogen vaziyatni baholashda aholining huquqiy madaniyati darajasi ham muhim mezon hisoblanadi. Fuqarolarning huquqiy bilimlari qanchalik yuqori bo'lsa, ularning qonun talablariga rioya qilish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Aksincha, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning past darajasi huquqbuzarliklarning ko'payishi uchun muayyan zamin yaratishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish profilaktika faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

<sup>6</sup> Антонян Ю.М. Личность преступника. – Москва: Юристь, 2004. – С. 118

<sup>7</sup> Кузнецова Н.Ф. Криминология. – Москва: Проспект, 2007. – С. 156

<sup>8</sup> ЮЛДАШЕВ Д.Х. Ўзбекистон Республикасида боланинг фуқаролиги билан боғлиқ масалаларни тартибга солувчи ҳуқуқий механизмларни такомиллаштириш //Юрист ахборотномаси–Вестник юриста–Lawyer herald. – 2020. – Т. 4. – С. 38-43.

<sup>9</sup> Блувштейн Ю.Д. Профилактика преступлений. – Москва: Юридическая литература, 1989. – С. 74

So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ham kriminogen vaziyatga ta'sir etuvchi yangi omillarni yuzaga keltirmoqda. Internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan noqonuniy kontent, firibgarlik sxemalari, giyohvandlik vositalarining yashirin targ'iboti hamda boshqa huquqqa xilof harakatlar ayrim shaxslarning g'ayriijtimoiy xulq-atvor shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli zamonaviy profilaktika faoliyati an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda raqamli xavfsizlik masalalarini ham qamrab olishi lozim.

Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning samaradorligi ko'p jihatdan mazkur omillarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish choralarining qay darajada tashkil etilganligiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan profilaktika inspektori, mahalla fuqarolar yig'ini, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, huquqbuzarliklarning oldini olish faqat bir davlat organining vazifasi emas, balki butun jamiyatning umumiy vazifasi hisoblanadi<sup>10</sup>.

Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tushunchasi profilaktika faoliyatining alohida shakli sifatida namoyon bo'lib, uning asosiy maqsadi huquqqa xilof xatti-harakatlar sodir etilishidan avval ularning kelib chiqishiga zamin yaratayotgan omillarni bartaraf etishdan iboratdir. Shu jihatdan mazkur institut huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin amalga oshiriladigan ta'sir choralaridan tubdan farq qiladi. Agar jazo choralari huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin qo'llanilsa, barvaqt profilaktika huquqbuzarlik yuzaga kelish ehtimoli mavjud bo'lgan bosqichda amalga oshiriladi.

Kriminologiya nazariyasida profilaktikaning ustuvorligi haqidagi g'oya ko'plab olimlar tomonidan ilgari surilgan. Xususan, A.B.Saxarov profilaktik ta'sir choralari jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali yo'nalishi ekanligini ta'kidlab, huquqbuzarliklarning oqibatlarini bilan emas, balki ularni keltirib chiqaruvchi omillar bilan kurashish muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi<sup>11</sup>.

Mazkur nuqtayi nazardan qaraganda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish faqat huquqiy ta'sir choralari qo'llash bilan cheklanib qolmaydi. U aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, bandlikni ta'minlash, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va oila institutini mustahkamlash kabi chora-tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Shu bois mazkur faoliyat kompleks xususiyatga ega bo'lib, turli davlat organlari va jamoat institutlarining hamkorligini talab qiladi.

Bizningcha, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning bir nechta muhim xususiyatlari ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Birinchi xususiyat uning preventiv tabiatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Ya'ni profilaktik choralar huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin emas, balki uning kelib chiqishi ehtimoli paydo bo'lgan vaqtda amalga oshiriladi. Ikkinchi xususiyat mazkur faoliyatning manzilliligi bilan bog'liq. Bunda profilaktik ta'sir choralari barcha aholiga bir xil tarzda emas, balki xavf guruhiga kiruvchi shaxslar va muammoli ijtimoiy muhitlarga nisbatan maqsadli ravishda qo'llaniladi. Uchinchi xususiyat esa uning tizimlilikini

<sup>10</sup> Yuldashev D.X. Fransiya va Koreya Respublikalarida fuqarolikka doir ishlarni yuritishning o'ziga xos xususiyatlari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 9. – C. 62-67.

<sup>11</sup> Сахаров А.Б. Социальный контроль и предупреждение преступности. – Москва: Наука, 1985. – С. 112

hisoblanadi. Chunki huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bir martalik tadbir emas, balki doimiy ravishda amalga oshiriladigan jarayondir.

Bugungi kunda kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki jinoyatchilikning asosiy qismi muayyan ijtimoiy muammolar to'plangan hududlarda kuzatilishi mumkin. Shu bois mahallalardagi ijtimoiy muhitni muntazam o'rganish, huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'rish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

M.M.Babayev jinoyatchilik profilaktikasini tashkil etishda hududiy yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, har bir hududning ijtimoiy holati, demografik tarkibi va kriminogen xususiyatlaridan kelib chiqqan holda profilaktik choralarni belgilash lozimligini qayd etadi<sup>12</sup>. Mazkur fikr mahallabay ishlash tizimining nazariy asoslarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning samaradorligi ko'p jihatdan profilaktika subyektlari o'rtasidagi hamkorlik darajasiga ham bog'liq. Xususan, profilaktika inspektori, mahalla fuqarolar yig'ini raisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ta'lim muassasalari va boshqa manfaatdor tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik qanchalik samarali tashkil etilsa, huquqbuzarliklarning erta bosqichlarda oldini olish imkoniyatlari shunchalik kengayadi. Bu esa o'z navbatida mahallada xavfsiz muhitni shakllantirishga xizmat qiladi<sup>13</sup>.

Kriminologik tadqiqotlarda qayd etilishicha, huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar o'z vaqtida bartaraf etilmagan taqdirda ularning salbiy ta'siri kuchayib boradi va natijada huquqqa xilof xulq-atvor barqaror ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli barvaqt profilaktika nafaqat huquqbuzarliklarni kamaytirish vositasi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni faqat huquqiy kategoriya sifatida emas, balki ijtimoiy boshqaruvning muhim instituti sifatida ham baholash mumkin. Chunki mazkur faoliyat orqali davlat va jamiyat tomonidan shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksaltiriladi hamda huquqqa itoatkor xulq-atvor shakllantiriladi.

Zamonaviy kriminologik yondashuvlarda huquqbuzarliklarning oldini olish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar vazifasi sifatida emas, balki davlat organlari, mahalla instituti, ta'lim muassasalari va jamoatchilikning o'zaro hamkorligiga asoslangan tizim sifatida baholanmoqda. Bu esa profilaktika faoliyatiga kompleks yondashuvni taqozo etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda mahallabay ishlash tizimining joriy etilishi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Mazkur tizim doirasida har bir mahallaning kriminogen holati chuqur tahlil qilinishi, aholini tashvishga solayotgan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Bu borada profilaktika inspektori faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

<sup>12</sup> Бабаев М.М. Криминология. – Москва: ЮНИТИ, 2017. – С. 243

<sup>13</sup> Qushboqov S. Xalilov J. Ma'muriy jazo tushunchasi, maqsadi va turlarining mazmun-mohiyati //Общественные туки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – С. 7-12.

Q.X.Mamatov profilaktika inspektorining hududlarda kriminogen vaziyatni yaxshilashdagi o'rnini tahlil qilar ekan, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish mexanizmini takomillashtirish uchun profilaktik faoliyatni tahlil, monitoring va prognozlash elementlari bilan boyitish zarurligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, profilaktika inspektori faqat huquqbuzarlik sodir etilgan holatlarga munosabat bildiruvchi subyekt emas, balki hududdagi xavf omillarini aniqlab, ularning oldini oluvchi asosiy bo'g'in hisoblanadi<sup>14</sup>.

Mazkur fikrni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, profilaktika inspektori tomonidan aholi bilan doimiy muloqot qilish, ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi shaxslarni aniqlash, oilalarning ijtimoiy holatini o'rganish va muammolarni barvaqt bartaraf etish choralari ko'rish huquqbuzarliklarning kelib chiqish ehtimolini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi<sup>15</sup>.

Kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish jarayonida tashkiliy-profilaktik tadbirlarning ahamiyati ham muhim hisoblanadi. M.Ummatov o'z tadqiqotida hududlarda tashkil etilayotgan profilaktik tadbirlarning samaradorligi ko'p jihatdan ularning tizimliliigi va maqsadli yo'naltirilganligiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, profilaktik tadbirlar faqat qisqa muddatli natijalarga emas, balki huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi lozim<sup>16</sup>.

Ushbu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish faqat huquqiy ta'sir choralari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Aksincha, aholi bandligini ta'minlash, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash va huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish kabi choralar profilaktika tizimining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Zamonaviy kriminologiyada xavfsiz muhit tushunchasi ham huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda. Xavfsiz muhit deganda fuqarolarning huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilingan, jamoat tartibi ta'minlangan hamda shaxsning hayoti va sog'lig'iga tahdidlar minimal darajaga tushirilgan ijtimoiy makon tushuniladi. Bunday muhitni shakllantirish huquqbuzarliklar profilaktikasining strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Bu borada Z.Umarov AQSH tajribasini tahlil qilar ekan, xavfsiz muhitni shakllantirishda aholi bilan hamkorlikka asoslangan profilaktika modeli muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Olimning qayd etishicha, mahalliy jamoalarning xavfsizlikni ta'minlash jarayonidagi

---

<sup>14</sup> Mamatov Q.X. Profilaktika inspektorining hududlarda kriminogen vaziyatni yaxshilashda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish mexanizmini takomillashtirish // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – T. 3. – № 11-3. – B. 91–94

<sup>15</sup> Кушбоков Ш. Научно-теоретический анализ исполнения наказания в виде возмездного изъятия предмета // Общество и инновации. – 2025. – Т. 6. – №. 1. – С. 8790.

<sup>16</sup> Ummatov M. Hududlarda tashkiliy-profilaktik tadbirlar samaradorligini yanada oshirish masalasi // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – T. 2. – № 12. – B. 90–94

ishtiroki qanchalik yuqori bo'lsa, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish imkoniyatlari ham shunchalik kengayadi<sup>17</sup>.

Mazkur ilmiy qarashlardan ko'rinib turibdiki, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning samarali modeli davlat organlari va jamoatchilikning hamkorligiga asoslanadi. Chunki aholi o'z yashash hududidagi muammolarni eng yaxshi biladigan subyekt hisoblanadi. Shu bois fuqarolarning profilaktika jarayonlaridagi ishtiroki huquqbuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, kriminogen vaziyatni baholash va unga ta'sir ko'rsatish jarayonida tahlil va prognozlash ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. U.Z. Ravupovning ta'kidlashicha, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilashda hududning kriminologik xususiyatlari, aholi tarkibi va mavjud xavf omillari har tomonlama tahlil qilinishi lozim. Faqat shundagina profilaktik choralarning samaradorligini ta'minlash mumkin bo'ladi<sup>18</sup>.

Shunday qilib, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning mazmun-mohiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur faoliyat jinoyatchilikka qarshi kurashishning mustaqil va ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Uning samaradorligi profilaktika subyektlarining hamkorligi, kriminogen vaziyatning doimiy monitoringi, aholi bilan yaqin muloqot o'rnatilishi hamda huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan choralarning amalga oshirilishiga bevosita bog'liqdir<sup>19</sup>.

Yuqoridagi nazariy qarashlar, ilmiy yondashuvlar hamda kriminologik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish jamiyat xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur faoliyatning ahamiyati huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin huquqiy ta'sir choralarini qo'llash emas, balki uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabab va shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi zamonaviy profilaktika faoliyatining eng muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Fikrimizcha, huquqbuzarliklarning kelib chiqishi bir vaqtning o'zida bir nechta omillar ta'sirida yuzaga keladi. Xususan, aholining turmush darajasi, ishsizlik, ijtimoiy nazoratning yetarli emasligi, oilaviy munosabatlardagi muammolar, yoshlar tarbiyasidagi kamchiliklar, huquqiy madaniyat darajasi hamda tashqi axborot ta'siri kabi omillar huquqqa xilof xatti-harakatlarning shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish jarayoni mazkur omillarning har birini chuqur o'rganish va ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni

---

<sup>17</sup> Umarov Z. Hududlarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish yo'nalishlari (AQSH tajribasi misolida) // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – T. 2. – № 12. – B. 95–98

<sup>18</sup> Ravupov U.Z. Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ayrim mulohazalar // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2025. – T. 5. – № 12. – B. 6–10

<sup>19</sup> Qushboqov S. Xususiy jazoni ijro etish muassasalari notijorat yuridik shaxs sifatida (Janubiy Koreyaning xususiy Somang jazoni ijro etish muassasasi misolida) // Общество и инновации. – 2025. – Т. 6. – №. 6. – С. 300-305.

talab etadi. Tadqiqot jarayonida o'rganilgan ilmiy manbalar va nazariy yondashuvlar huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati sifatida emas, balki davlat organlari, mahalla instituti, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va aholining o'zaro hamkorligiga asoslangan ijtimoiy-huquqiy mexanizm sifatida baholash zarurligini ko'rsatdi. Ayniqsa, mahalla institutining profilaktika tizimidagi o'rni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida yanada kuchayib bormoqda. Chunki mahalla fuqarolarning kundalik hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy institut sifatida huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni boshqa subyektlarga nisbatan ertaroq aniqlash imkoniyatiga ega.

Shuningdek, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda profilaktika ishlarining samaradorligi profilaktika inspektori faoliyati bilan ham uzviy bog'liqdir. Profilaktika inspektori tomonidan aholi murojaatlarini o'rganish, muammoli oilalar bilan ishlash, profilaktik hisobda turuvchi shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish hamda jamoatchilik bilan hamkorlikni tashkil etish huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda profilaktika inspektorining faoliyati faqat huquqbuzarlik sodir etilgan holatlarga munosabat bildirish bilan cheklanib qolmasdan, balki hududdagi kriminogen vaziyatni doimiy monitoring qilish va uni barqarorlashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Mavzu yuzasidan o'rganilgan nazariy manbalar va ilmiy qarashlarni tahlil qilish natijasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tushunchasiga nisbatan mualliflik yondashuvini shakllantirish imkoni paydo bo'ldi.

Nazarimizda, **kriminogen vaziyati murakkab mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish** – bu huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar va ularning sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, baholash va bartaraf etish, xavf guruhiga kiruvchi shaxslarga nisbatan manzilli profilaktik ta'sir choralarini qo'llash hamda davlat organlari, mahalla instituti va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi asosida xavfsiz ijtimoiy muhitni shakllantirishga qaratilgan kompleks ijtimoiy-huquqiy faoliyatdir. Mazkur mualliflik ta'rifining ilmiy ahamiyati shundaki, unda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning asosiy tarkibiy elementlari *sabab va shart-sharoitlarni aniqlash, xavf omillarini baholash, manzilli profilaktika choralarini amalga oshirish, subyektlar hamkorligini ta'minlash va xavfsiz muhitni shakllantirish* kabi jihatlar yagona tizim sifatida qamrab olingan. Shu bilan birga, mazkur ta'rif huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy boshqaruv mexanizmi sifatida ham talqin qilish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Нигматов Р. О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг ўзига хос жиҳатлари: америка қўшма штатлари мисолида илмий-назарий таҳлил //Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Т. 3. – №. 9. – С. 116-121.
2. Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар мажбуриятларини оширишнинг илмий-назарий таҳлили //Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – Т. 4. – №. 9. – С. 73-77.
3. Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар ҳуқуқларини такомиллаштиришнинг илмий-назарий таҳлили //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2025. – Т. 3. – №. 9. – С. 27-31.
4. Долгова А.И. Криминология. – Москва: 2010. – С. 296

5. Xayitovich Y.D. Transport huquqi mustaqil huquq tarmoqi sifatida: nazariy asoslar, qiyosiy tahlil va o'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish masalalari //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2026. – Т. 6. – №. 2. – С. 67-71.
6. Антонян Ю.М. Личность преступника. – Москва: Юристъ, 2004. – С. 118
7. Кузнецова Н.Ф. Криминология. – Москва: Проспект, 2007. – С. 156
8. ЮЛДАШЕВ Д.Х. Ўзбекистон Республикасида боланинг фуқаролиги билан боғлиқ масалаларни тартибга солувчи ҳуқуқий механизмларни такомиллаштириш //Юрист ахборотномаси–Вестник юриста–Lawyer herald. – 2020. – Т. 4. – С. 38-43.
9. Блужштейн Ю.Д. Профилактика преступлений. – Москва: Юридическая литература, 1989. – С. 74
10. Yuldashev D.X. Fransiya va Koreya Respublikalarida fuqarolikka doir ishlarni yuritishning o'ziga xos xususiyatlari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 62-67.
11. Сахаров А.Б. Социальный контроль и предупреждение преступности. – Москва: Наука, 1985. – С. 112
12. Бабаев М.М. Криминология. – Москва: ЮНИТИ, 2017. – С. 243
13. Qushboqov S. Xalilov J. Ma'muriy jazo tushunchasi, maqsadi va turlarining mazmun-mohiyati //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – С. 7-12.
14. Mamatov Q.X. Profilaktika inspektorining hududlarda kriminogen vaziyatni yaxshilashda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish mexanizmini takomillashtirish // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Т. 3. – № 11-3. – В. 91–94
15. Кушбоков Ш. Научно-теоретический анализ исполнения наказания в виде возмездного изъятия предмета //Общество и инновации. – 2025. – Т. 6. – №. 1. – С. 8790.
16. Ummatov M. Hududlarda tashkiliy-profilaktik tadbirlar samaradorligini yanada oshirish masalasi // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – № 12. – В. 90–94
17. Umarov Z. Hududlarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish yo'nalishlari (AQSH tajribasi misolida) // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – № 12. – В. 95–98
18. Ravupov U.Z. Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ayrim mulohazalar // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2025. – Т. 5. – № 12. – В. 6–10
19. Qushboqov S. Xususiy jazoni ijro etish muassasalari notijorat yuridik shaxs sifatida (Janubiy Koreyaning xususiy Somang jazoni ijro etish muassasasi misolida) //Общество и инновации. – 2025. – Т. 6. – №. 6. – С. 300-305.